

HAMID OLIMJON SHE'RIYATIDA SINONIMLAR

Xo'jayeva Nargiza Azamatovna

NavDU "O'zbek tili va adabiyoti" 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Har bir ijodkorning mahorati va tilining boyligi, so'zlarni qaysi o'rinda, qanday qo'llay olishida anchayin namoyon bo'ladi. Tilimizni boyituvchi asosiy manbalardan biri sifatida sinonimlarni keltirar ekanmiz, ko'plab buyuk ijodkorlar qatorida Hamid Olimjon ham tasvirlarining rang-barangligi, hech kimga o'xshamaydigan uslub va jihatlarini, so'zlarni qo'llay olish mahorati bilan deyarli barcha kitobxonlarning sevimli ijodkoriga aylangan. Mazkur maqolada sinonimlar turlari va ularning she'riyatda qo'llanilishi haqida ma'lumot beriladi.*

Kalit so'zlar: *Sinonimlar, leksik, semantik, kontekstual, frazeologik, kontekst, takroriylik, ma'nodoshlik.*

Tilimiz boyishining asosiy manbai sinonimlar bo'lib, sinonimlarga qisqacha qilib, aytilishi va yozilishi turlicha, ammo ma'nolari bir xil yoki bir-biriga juda yaqin bo'lgan so'zlar deya ta'rif berish mumkin. Sinonimlar bir qancha xususiyatlariga ko'ra farqlanadi. Ularning turlari to'g'risida to'xtalib o'tadigan bo'lsak: 1) Leksik sinonimlar – bir xil ma'noni ifodalovchi, lekin turli so'zlar orqali ifodalanadigan so'zlar, masalan: “Yashash” va “Turish” so'zlari leksik sinonimlardir. 2) Semantik sinonimlar esa ma'nolari bir-biriga yaqin, ammo ma'lum bir kontekstda bir-biridan farq qilishi mumkin: “Chiroyli”, “Go'zal” so'zlari. 3) Kontekstual sinonimlar – ma'lum bir kontekstda bir xil ma'no ifodalovchi so'zlar sanaladi. Masalan: “Yozuvchi” va “Muallif” so'zlari kontekstual sinonimlar bo'la oladi. 4) Sinonimlarning yana bir ko'rinishi frazeologik sinonimlar bo'lib, ular ma'lum bir ibora yoki frazeologik brikmalar orqali ifodalanadigan bir-biriga o'xshash ma'noli so'zlar hisoblanadi. Sinonimlar tilimiz va nutqimizni boyitib, takroriylikni oldini oladi va shuning barobarida to'g'rililik va jozibadorlikni ham ta'minlaydi. Sinonimlar, ya'ni ma'nodosh so'zlar haqida bir qancha fikrlar ilgari surilgan bo'lib, jumladan, O.S. Ahmanova unlarga quyidagicha ta'rif beradi: Tilshunoslikda umum qabul qilingan tushuncha, bu sinonimlar, ya'ni talaffuzi har xil, ma'nosi bir xil yoki ma'nosi bir-biriga mos so'zlardir[1] Ushbu ta'rifni yuqorida keltirib o'tgan misollar va fikrlarimiz bilan juda ham yaqin deyolamiz. Yana bir tilshunosimiz A.B. Sharipov sinonimlar ta'rifiga yanada aniqlik kiritib, “Ma'nosi butunlay mos keladigan, tovush tarkibi bilan farq qiladigan so'zlar sinonimlar emas, bunday moslik tillarda bo'lmaydi”[1] deya ta'kidlagan. Albatta, sinonimlar ma'nosi bir-biriga butunlay mos keladigan so'zlar emas, ular ham qaysidir xususiyatiga ko'ra, ma'lum bir o'rinda farqlanishi mumkindir.

Biz quyida atoqli ijodkorlarimizdan biri bo'lgan Hamid Olimjon she'rlari misolida sinonimlarning bir turi hisoblangan leksik sinonimlar bilan tanishib chiqamiz. Ijodkorning "O'zbekiston" she'ridagi:

Har burchakda boshkesar bo'lmas,
Kulbalarni kelib bosmas qum.
Go'daklarni yutmas och o'lim,
Odamga baxt va tole yordir –
Bu shundayin ajib diyordir. [2:5]

"Baxt va tole" so'zlari leksik sinonimlarni yuzaga keltirgan. Adib ushbu she'rida tinchlik va osoyishtalikni ulug'lar ekan, bir ta'rif bilan ikki tasvirni gavdalantiradi, bir tarafdin tinchlik hukm surayotgan obod o'lka va yana bir tarafdin qay yurtlardadir sodir bo'lib kelayotgan urush, vayronagarchiliklar. Ushbu she'rda o'z yurtining tinch va osoyishta ekanligiga shukronalik hissi ham sezilib turadi. Ushbu she'rning davomi bo'lgan:

Meva bog'lab shoxin bukadi,
Shaharlarda ishga chiqib el.
Odam bilan to'lar tekstel.
Hammasining bir istagi bor,
Hammasi ham xursand-baxtiyor. [2:5]

Misralarida "Xursand va baxtiyor" so'zlari leksik sinonimlar bo'lib, yurtning tinch-totuvligi tufayli hayot o'z izida, go'zal davom etayotgani aks ettirilgan. Keyingi misralarda:

G'ijillar kichik eshik,
Chiqar kulib go'zal qiz.
Yomg'ir yuvgan yaproqdek,
Jonli, tirik va tetik. [2:7]

"Jonli va tirik" so'zlari leksik sinonimlar bo'lib, ushbu so'zlar o'lkaning ayol-qizlari qay holatda ekanligini, ya'ni so'lgini, sarg'aygan giyohday emas, balki yomg'ir yuvgan yaproqdek g'uborsiz, ya'ni ba'zi yurtlardagi oyoqosti qilinayotgan qiz-juvonlarga ishora qilgan holatda, ushbu o'lkada ayollar baxtiyor, asrab-avaylash va ardoqda ekanligini tasvirlab o'tgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Ijodkorning yana bir "Siyob" nomli she'rida ham "Shod, quvnoq" so'zlari asosida yuzaga kelgan leksik sinonimlarga duch kelamiz:

Biz shod, quvnoq,
Siyob sari oqamiz.
Har tomonga
Sevinch bilan boqamiz.
Bir yonda:

Yoyilgan

Qo'ylar, qo'zilar. [2:27]

Ushbu jummalarda ijodkorning o'z qishlog'i tasviri, o'zining beg'am, quvonch-u shodliklarga to'la damlari ifoda etilgan. Uning "Bolalik" she'rida esa "Nurli, oydin" leksik sinonimlari orqali adibning bolalik chog'laridagi oyning yorug'ida kechgan oydin tunlari tasviri chizilganday go'yo:

Nurli, oydin kechalar,

Porlar edi ko'chalar.

To'planardik,

"Yashinmachoq" o'ynardik. [2:36]

Ushbu misralarda o'yinqaroq bolalik chog'larini sog'inch ila xotiridan o'tkazgan. Chindan ham har bir inson bolaligini, qanchadan qancha bebaho, hech qachon unutib bo'lmas damlarini sog'inadi, eslaganda kutilmaganda yuziga g'oyibdan tabassum yuguradi. Bolalik chog'lar qanday o'tishidan qat'i nazar, xoh u mashaqqatlar, qiyinchiliklarga boy bo'lsin, lekin, albatta, hammaning tabassum ila esga oladigan bolalik xotiralari bo'ladi. Ayniqsa, birga ulg'aygan bolalikdagi qadrton do'stlaringiz bilan uchrashib qolganingizda darrov o'sha damlardan gap boshlanib, o'sha paytlarga qaytib qolgandek inson o'zini behad baxtiyor his eta boshlaydi. Hamid Olimjonning yana bir "O'zbekiston" nomli she'ri leksik sinonimlarga juda boy bo'lib, ularni bir necha o'rinlarda uchratishimiz mumkin:

Soqoliga oq tushgan,

Dehqon ota minbarda:

Chopgan,

Hovliqqan,

Shoshgan...[2:8]

Bu o'rinda "Hovliqqan, Shoshgan" so'zlari orqali bo'lsa,

Adolatoy kelardi,

Polvon kabi dam tortmay.

Novdalarga ko'milib

Charchamay,

Tolmay,

Botmay. [2:10]

Yuqoridagi misralarda "Tolmay, Charchamay" so'zlari leksik sinonimlarni yuzaga keltirgan.

Cho'llab qoldik, tashnamiz,

Tashlab keting bittani.

Xo'p berayin jon bilan,
Ol pichoqni so'y qani. [2:11]

Ushbu misralarda "Cho'llab qoldik, tashnamiz" so'zlari bo'lsa,
Dala yuzin qoplar chechak – gul,
Kulib chiqar yorib yer tagin.
Zangor ko'zlariga to'lar nur,
Shudring bilan yuvar kiprigin. [2:22]

Misralarida "Chechak, gul" so'zlari leksik sinonimlardir. Ushbu baytlarning umumiy ma'nosiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, she'rda qishloq hayoti qalamga olingani yaqqol sezilib turibdi. Qishloq odamlari, ularning faoliyati, dalalar va ulardagi mehnat, Adolatoy timsolida barcha qishloq ayollari va ulardagi kuch, g'ayrat, metin iroda, chidamlilik kabi buyuk sifatlarga ega chin, hayotiy qahramonlarni, ijodkor o'quvchi tasvvurida to'la-to'kis gavdalandiradi. She'rlarda qo'llanilgan sinonimlar ba'zi o'rinlarda ma'noni kuchaytirish vazifasini ham bajargan. Xulosa qilib shuni aytish joizki, Hamid Olimjon she'rlari nafaqat sodda-ravonligi, go'zal tasvir vositalari, balki xalqchilligi bilan ham o'quvchilarning eng sevimli ijodkorlardan biriga aylangan desak, aslo adashmagan bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A. Mamatov (2020). O'zbek tili frazeologiyasi. Архив Научных Публикаций JSPI.
2. U. Tursunov, J. Muxtorov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T, 1975
3. "Xayolimda bo'lding uzun kun" she'riy to'plami. – Toshkent, 2019.